

TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQAND

Mamasharifova Shahloxon Muxtorxon qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18897668>

Annotatsiya:

Ushbu maqola eng qadimgi va go'zal shahri Samarqad haqida. Samarqad uzoq o'tmishga ega shahar. Temuriylar davlatining poytaxti bo'lgan shahardir. Bu shaharning tarixi 2750 yilga teng bo'lib, u ko'plab tarixiy manbalarda uchraydi.

Kalit so'z. Samarqand, Temuriylar, Klavixo, adolatli jamiyat, Xitoy, Hindiston, Tatariston, Shohi-Zinda ansambli, Mirzo Ulug'bek madrasasi.

Annotatsiya:

This article is about the oldest and most beautiful city of Samarkand. Samarkand is a city with a long history. It was the capital of the Timurid state. The history of this city is 2750 years old and is mentioned in many historical sources.

Keywords: Samarkand, Temurids, Klaviho, just society, China, India, Tatarstan, Shahi-Zinda ensemble, Mirzo Ulugbek madrasah.

Annotatsiya:

Эта статья посвящена старейшему и самому красивому городу Самарканду. Самарканд — город с долгой историей. Он был столицей государства Тимуридов. История этого города насчитывает 2750 лет и упоминается во многих исторических источниках.

Ключевые слова: Самарканд, Темуриды, Клавихо, справедливое общество, Китай, Индия, Татарстан, ансамбль Шахи-Зинда, медресе Мирзо Улугбека.

Kirish. Samarqand — jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib, insoniyat tarixida muhim o'rin tutadigan shaharlar qatorida alohida ajralib turadi. Arxeologik manbalarga ko'ra, bu hududda ilk shahar hayoti ikki ming yildan ortiq avval shakllangan bo'lib, u turli davrlarda Ahamoniylar, Kushonlar, Arab xalifaligi, Somoniylar, Temuriylar va boshqa sulolalar hukmronligi ostida yuksalib borgan. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand siyosiy, madaniy, me'moriy va ilm-fan markaziga aylanishi bilan butun dunyoga dong taratgan.

Shahar Buyuk Ipak yo'li yoqasida joylashgani tufayli qadimdan xalqaro savdo, madaniy almashinuv, ilmiy g'oyalar va hunarmandchilikning rivojlanishida muhim o'rin egallagan. Samarqandning Registon majmuasi, Bibixonim masjidi, Shohi Zinda maqbaralari, Ulug'bek rasadxonasi kabi nodir obidalari xalqimizning ma'naviy merosi va me'moriy san'atining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning barchasi asrlar osha o'z qiyofasini saqlab, bugungi kunda ham butun dunyodan kelgan sayyohlarni o'ziga jalb etishda davom etmoqda.

Samarqand nafaqat tarixiy obidalari, balki ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi bilan ham mashhur. Temuriylar davrida faoliyat yuritgan Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalar astronomiya va matematika fanlarini yangi bosqichga ko'targan. Ular yaratgan ilmiy meros bugungi kunda ham jahon ilm-fanida yuqori yuqori baholanadi.

Shu sababli Samarqand tarixini o'rganish nafaqat bir shahar rivojini anglash, balki Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanish jarayonlarini tahlil qilishda ham katta ahamiyatga ega.

Asosiy. “Samarqand” so'zining kelib chiqishi haqida bir qancha taxmin va qarashlar mavjud. Sharq mualliflari «Samarqand» so'zining 1-qismi, ya'ni «Samar» so'zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun'iy ta'riflarni taklif etdilar, ammo tarixda bunday ismli kishi haqida ma'lumotlar aniqlanmagan. So'zning 2-qismi «kent» (kand) — qishloq, shahar degan ma'noni bildiradi. Ba'zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha «Samariya»ga yaqin, ya'ni «yig'ilish, yig'in» so'zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Yana bir afsonada Samarqandning afsonaviy hukmdori Shamar ibn Xoris haqida rivoyat beriladi, u bu yerda o'z ismi bilan atalgan “Shamarkat” degan shahar barpo etadi. Keyin bu nom Samarqand bo'lib o'zgarib ketadi deyiladi. Qadimgi davr mualliflarning asarlarida shahar “Marokanda” deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo'lib, Marokanda — Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir. [1.B.12] X - XI asrlarda yashagan olimlar Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariy shahar nomining kelib chiqishini «Semizkent», ya'ni «semiz, boy qishloq, shahar» so'zining buzib talaffuz qilinishi deb tushuntiradilar.

Samarqand jahon shaharsozligi tarixida chuqur iz qoldirgan qadimiy maskanlardan biri hisoblanadi. Miloddan oldingi 1-ming yillikning o'rtalaridan Samarqand Sug'dning ma'muriy markazi bo'lgan. Ko'hna shaharning qoldiqlari Afrosiyob xarobalarida saqlanib qolgan. [2,B,53]

Qadimgi Sug'd, jumladan Samarqand xalqi o'z tarixi davomida bir necha marta chet el bosqinchilarga qarshi o'z mustaqilligini saqlab qolish maqsadida mardonavor kurashib kelgan. Mil.avv 329-327 yillarda Samarqand aholisi Spitamen boshchiligida Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qarshi kurash olib borgan.

Temuriylar davrida Samarqand. Samarqand shahri juda qadim zamonlardan beri ma'lum. U o'z tarixida turli shonli davrlarni boshdan kechirgan. Lekin uning eng yuksalib taraqqiy topishi AmirTemur davriga to'g'ri keldi. Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur (1336–1405) va uning avlodlari–Temuriylar sulolasining hukmronlik davri alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Samarqand shahri bu davrdana faqat Movarounnahrning, balki butun Sharqning siyosiy, madaniy va ilmiy markaziga aylandi. Bu davrda shahar siyosiy jihatdan markazlashgan davlat poytaxti, iqtisodiy jihatdan yirik savdo va hunarmandchilik markazi, madaniy jihatdan esa ilm-fan, san'at va me'morchilik markazi sifatida yuksak darajada taraqqiy etdi.

Amir Temur davlatni kuchli markazlashgan holda boshqarar, uning bosh maqsadi “adolatli jamiyat” va “qudratli davlat” barpo etishdan iborat edi. Shu bilan birga, u poytaxt Samarqandni jahondagi eng go'zal va obod shaharlar qatoriga kiritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Natijada XIV–XV asrlar Samarqand tarixining eng yorqin sahifalaridan biriga aylandi. Samarqandning siyosiy markazga aylanishi AmirTemur 1370-yilda hokimiyatni qo'lga olgach, Samarqandni o'z davlatining poytaxti deb e'lon qildi. U buqarorini shahar geografik joylashuvi, tarixiy obro'si va iqtisodiy salohiyatini inobatga olib qabul qilgan edi. Amir Temur davrida Samarqandda saroy, devon, qo'shinni boshqaruvchi idoralar, diplomatik missiyalar joylashgan edi. Turli mamlakatlardan–Xitoy, Hindiston, Misr, Eron, Turkiya va Yevropadan elchilar Samarqandga tashrif buyurishgan. Xususan, Ispaniyadan Samarqandga, Amir Temur huzuriga Rui Gonsalesde Klavixo elchi bo'lib kelgan edi. Sohib qiron Amir Temur hukmronlik qilgan XV

asrdagi Movarounnahrvauning ba'zi shaharlari haqida yozilgan tarixiy-geografik manbalarichida mashhur ispan sayyohi Rui Gonsalesde Klavixoning Samarqandga qilgan safari kundaligi muhim o'rin tutadi. 1403-yilda Kastili yaqiroli Enrike III ning Amir Temur saroyidagi elchisi etib tayinlangan Klavixo Samarqand va uning atrofida qiziqarli kuzatishlarni olib borgan va ularni «Samarqandga-Temur saroyiga 1403-1406-yillardagi sayohat kundaligi» nomi bilan chop etilgan o'z esdaliklarida aks ettirgan. Klavixoning «Kundalik»larining 1403-1404-yillari Turkiya, Eron va Movarounnahrda, xususan, Amir Temur saroyida ko'rgan bilganlarini o'z ichiga olgan muhim asardir. Kastiliyadan 1403-yilning 22-mayida yo'lga chiqqan ispan elchisi Klavixo 15 oydan keyin Samarqandga yetib kelgan. Klavixoning Samarqandga bu safari Amir Temurning 1402-yilda Ispaniyaga Xoja Muhammad qozi boshchiligida yuborgan elchiligidagi qilingan javob edi. Klavixo Samarqand va uning atrofidagi aholining mashg'uloti va savdo mollarining narxi haqida shunday yozadi: «Bu yurt don-dun, may, meva-cheva, parranda go'shti, boshqa har xil go'sht, qo'yingki, hamma narsaga boydir...bir juft semiz qo'yning narxi dukat» (dukat-Ispaniyada o'sha vaqtda amalda bo'lgan bir oltin tanga). Samarqand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa mamlakatlardan, shuningdek, benihoyat boy Samarqand saltanatining o'zidan keltirilgan molar sotiladi...». 1405-yilning fevral oyida Amir Temur vafotidan keyin Klavixoning elchiligi ahamiyatini bir muncha yo'qotgan va sayyoh 1406-yilning mart oyida vatani, ya'ni Kastiliyaga qaytib kelgan. U yerda o'zining Samarqand safari taassurotlarini tartibga solib, ushbu sayohat davomida ko'rgan-kechirganlarini xronologik tarzda kunma-kun ifoda etgan. Samarqandning iqtisodiy taraqqiyoti. Amir Temur davrida Samarqand iqtisodiy jihatdan ham yuksaldi. Amir Temur davlatni barqaror iqtisodiy asosda mustahkamlashga kata e'tibor qaratdi. U karvon yo'llarini ta'mirlatdi, yangi ko'priklar, rabotlar, suv inshootlarini barpo ettirdi. Samarqand Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi tufayli xalqaro savdoning muhim markaziga aylandi. Shahar bozorlarida Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari, Eron gilamlari, Arabiston atrlari, hatto Yevropa mahsulotlari ham savdoga qo'yilgan. Hunarmandchilik ham rivojlandi. Ayniqsa, zargarlik, misgarlik, kulolchilik, ipak to'qish, qurol yasash, miniature va bezak san'ati yuqori darajada bo'ldi. Samarqand ustalarining ishlari Eron, Hindiston va Turkiyada katta qiymatga ega bo'lgan. Temuriylar davrida dehqonchilik ham keng rivojlandi. Zarafshon vodiysidagi suv inshootlari, ariqlar va bog'lar qayta tiklandi. Ayniqsa, «Bog'i Dilkusho», «Bog'i Behisht», «Bog'i Shamol» kabi mashhur bog'lar bunyod etildi. Madaniy va ilmiy hayotning yuksalishi Samarqand Temuriylar davrida madaniy-ma'naviy uyg'onish markaziga aylandi. Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilikni rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardilar. [4,B,46]

Fan sohasida Mirzo Ulug'bek (1394–1449) davrida Samarqand ilm-fan markaziga aylandi. Ulug'bek 1420-yillarda Samarqandda mashhur «Ulug'bek madrasasi»ni, 1428–1429-yillarda esa «Rasadxona»ni barpo ettirdi. Bu rasadxona Sharqdagi eng ilg'or ilmiy markazlardan biri bo'lib, unda Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshidal-Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar faoliyat yuritgan. Adabiyot va san'atda Temuriylar saroyida adabiyot, musiqashunoslik va tasviriy san'at yuksak darajada rivojlandi. Mashhur tarixchilar Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarlarini yozib, Amir Temurning hayoti va faoliyatini yoritganlar. Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qutbiddin Sheroziy singari san'atkorlar miniature va tasviriy san'atda yangi maktab yaratdilar.[7,B,148]

Me'moriy obidalar. O'rta asr qurilishi san'ati tarixi tadqiqotchi-olimlarining fikricha, XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida Movaraunnahrda O'rta va Yaqin Sharq arxitekturasining eng yahshi yutuqlarini o'zida ifodalagan, original, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Aynan shu vaqtda Samarqand shahri yanada gullab, yangidan shakllandi,

Shohi-Zinda ansambli. Bu erda XVIII-asr oxirigacha Mavorounnahrning barcha arxitektura maktablari mavjud. Shohi-Zinda ansambli hududida jami 44 ta ob'ekt ilmiy tadqiqotlar asosida madaniy meros obyekti sifatida tan olingan. Ansamblning yigirmata yodgorligi ham tarixiy, ham me'moriy va badiiy jihatdan katta qiziqish uyg'otadi.

Dastavval bu yerda XI asrdag Samarqanddagi ilk qoraxoniylar davrida qurilgan «tirikshoh»ning maqbarasi bo'lgan. Keyinchalik xuddi shu yerga 1066-yili Tamg'ach Bo'g'ra xon madrasasi qurildi va unga tutash bir qator turkum majmua yuzaga keldi. XI—XII asrlarda serhasham bezatilgan boshqa maqbaralar vujudga kela boshladi. Arxeologlar ulardan bir nechtasini XIV asr inshootlarining g'arb tamonidagi yo'lakdan qazib topdilar. Ular bezaklari bilan Temur davri maqbaralaridan farq qilgan. O'sha davrda ham, Qusam ibn Abbos maqbarasi «muqqadas» hisoblanib ziyorat qilingan. [2,B,54,55]

Samarqanddagi Registon maydonining eng qadimiy inshooti bo'lmish **Mirzo Ulug'bek madrasasi** (1409–1420) o'rta asrlardagi o'ziga xos oliy o'quv yurti hisoblangan. U mahobatli peshtoq, keng toqli ravoq, ikki chetida baland guldasta va ularni birlashtirib turuvchi gumbaz tomli ikki darsxonadan iborat. Ulug'bek madrasasi XX asr boshlarida zilzila va boshqa turli tashqi ta'sirlardan katta ziyon ko'rgan. Uning og'irligi 800 tonna, balandligi 36 metr bo'lgan ikki minorasi yonga sezilarli darajada og'ib qolgan edi. O'rta Osiyo me'morchiligining betakror namunasi hisoblangan ushbu madrasaning tarixiy ahamiyati tarixchi olimlar e'tiboridan chetda qolmagan. 1916-1965 yillar davomida bir guruh olimlar say-harakatlari asosida madrasa minoralari chuqur o'rganilgan. Ya'ni, madrasaning peshtoqidan 2 metrcha og'ib qolgan shimolisharqiy minorasi 1932 yil yanvar oyida va vertikal holatdan 1,78 metr og'ib qolgan janubi-sharqiy minorasi 1965 mart oyida tiklangan. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, minorani tiklash ishlarida V.L.Vyatkin, M.Ye.Masson, mahalliy me'mor Abduqodir Boqiyev, injenerlar V.G.Shuxov va M.Ye.Knorre va boshqalar ishtirok etishgan. Mualliflar tomonidan ushbu me'moriy yodgorlikda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bir nechta foto-albomlar tayyorlangan.

Ansambl binolarini qayta tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Samarqand hukmdori Amir Yalangtush Bahodir XVII asrda Sherdor va Tillakori madrasalarini qurib, Registon maydoni shuhratini yanada oshirdi va go'zallashtirdi. [2,B,59]

Saroymulkxonim. Saroymulkxonim madrasasi – “qo'sh” usulda, ya'ni Bibixonim jome' masjidi va uning qarshisida bunyod etilgan maqbara majmuasida qurilgan baland peshtoqli ulug'vor inshootlar sirasiga kirgan. Ushbu madrasa Bibixonim jome' masjidi qarshisida bunyod etilgan. Manbalarda keltirilishicha, Saroymulkxonim madrasasi peshtoqi uning qarshisidagi Amir Temur jome' masjidinikidan ancha mahobatli va chiroyli bo'lgan. Navbatdagi harbiy yurishdan Samarqandga qaytgan Amir Temur bu holni ko'rib g'azablanganidan, masjid darvozasini buzib, qayta qurishni buyurgan. Ushbu masjid va madrasa to'g'risida “Zafarnoma”da quyidagilar keltirib o'tilgan: “Masjidi jum'akim hazrat o'zi solib erdi, borib tavarruj qilib ko'rdikim, eshikni kichik solibdurlar. Buyurdilarkim “Buzib, ulug'roq solsunlar!. Saroymulkxonim solg'an madrasakim, masjidi jome' aning muqobilida tutur”

Saroymulkxonim madrasasi Samarqandning Ohanin (Temir) darvozasi yaqinida, onasining maqbarasi yonida qurdirilgan. Manbalarda madrasaga kiriladigan darvoza peshtoqining nihoyatda baland, keng va go'zalligi, salobati va betakrorligi, ayvonlarining qurilish uslubi va bezaklari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Mazkur madrasa ham o'z davrining eng yirik ta'lim muassasalaridan bo'lgan. Unda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy imllar majmui ham o'qitilgan bo'lib, zamonasining yirik fan arboblari yetishib chiqishida o'ziga xos o'rin tutgan. Temuriylar davri ilm-ma'rifatidan nishona bo'lgan ushbu mahobatli madrasa XVI asrda Abdullaxon tomonidan buzdirib tashlangan.

Milliy me'morchilikda mavjud tasnifga ko'ra saroylar ma'muriy boshqaruv inshootlari sirasiga kiritilgan. Amir Temur davrida Samarqandda bunyod etilgan Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy shunday inshootlardan hisoblanadi.[4,B,42,43].

Ruhobod maqbarasi 1380 yilda Amir Temurning farmoniga asosan, mashhur din arbobi Shayx Burhoniddin Sog'arjiy va uning avlodlari xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Shayx Burhoniddin Sog'arjiy Makkai Mukarrama shahrida imom-xatiblik qilgan. Sharqiy Turkiston yerlarida Islom dinini targ'ib etgan. Ruhobod maqbarasi o'rta asrlardagi Samarqandning hashamatli va mahobatli me'moriy obidalaridan o'zining ixchamligi hamda oddiy qurilish uslubi bilan ajralib turadi. Bu yerda dabdabali sirlangan koshinlar va serhasham naqshlar yo'q. [5. B. 226]

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida Samarqand Sharqning eng yirik siyosiy, madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Amir Temur va uning vorislari bu shaharni nafaqat davlat poytaxti, balki ilm-fan va me'morchilik markazi sifatida rivojlantirdilar. Saroymulkxonim masjidi Temuriylar davri me'morchiligining ulug'vorligi va saltanat qudratini namoyon etgan bo'lsa, Ulug'bek rasadxonasi ilm-fan taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etdi. Ulug'bek tomonidan olib borilgan astronomik tadqiqotlar jahon ilmiy merosiga katta hissa qo'shdi. Umuman olganda, Temuriylar davrida Samarqandda yaratilgan me'moriy va ilmiy yodgorliklar bugungi kunda ham o'z tarixiy va madaniy ahamiyatini yo'qotmagan holda, milliy merosimizning bebaho qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Raxmatov Abduvali Abdulkakimovich, "Samarqand shahri tarixiga oid ba'zi mulohazalar", [IQRO INDEXING](#), 2024yil, oktabr-12.
2. Xo'jageldiyev Ibodulla, "Samarqand me'moriy yodgorliklari tarixi", "General history and culture- the foundation of unity and sustainable development of Turkic peoples" Internation scientific and pratical conference", April, 2025 yil. 8-iyul.
3. D.B.Murtazaev. "Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqadda qurilish madaniyati"
4. Muxabbat Xamidova, "Temuriylar davrining movoraunnahrdagi me'moriy obidalari tarixi", Evrika nashriyoti, Toshkent – 2024
5. Hamidova M.S. "Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari", 2022yil.
6. Asatullayeva Umida, "Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand arxitekturasini", Aretectura qurilish qurilish sohalarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning dolzard muommolari, 2022-yil,
7. Muhammadjonov.A, "O'zbekiston tarixi", "SHarq" nashriyoti, 2017-yil.